


**Z.B. Toshov, Y.B. Ro'ziyev,
D.Z. Hayotova, S.S. Xudoyev**

NEMIS TILI FONETIKASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Z.B. Toshov, Y.B. Ro'ziyev,
D.Z. Hayotova, S.S. Xudoyev**

NEMIS TILI FONETIKASI

(o'quv qo'llanma)

“Durdona” nashriyoti

Buxoro - 2022

UO'K 811.112.2'342(075.8)

81.2-1ya73

N 44

Nemis tili fonetikasi [Matn] : o'quv qo'llanma / Z.B. Toshov, Y.B. Ro'ziyev, D.Z. Hayotova, S.S. Xudoyev .-Buxoro: "Sadriiddin Salim Buxoriy" Durдона, 2022. - 192 b.

KBK 81.2-1ya73

Ushbu o'quvchi e'tiboriga havola etilayotgan o'quv qo'llanma Filologiya va tillarni o'qitish (nemis tili) ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan I-II bosqich talabalariga mo'ljallangan bo'lib, undan magistrantlar, aspirantlar, tadqiqotchilar hamda nemis tilini mustaqil o'rganmoqchi bo'lganlar ham foydalanishlari mumkin. O'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dastur asosida tayyorlandi. Unda fonetikaning har ikki - segment va supersegment tomonlari qamrab olingan.

Mas'ul muharir:

Sh.S. Imyaminova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar:

S.S. Saidov, filologiya fanlari nomzodi, professor

L.T. Xoliyarov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Z.O. Jumaniyozov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.M. Jo'rayeva, filologiya fanlari doktori, dotsent

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro'yxatga olish raqami 500-229.

ISBN 978-9943-7972-8-4

Ishning beshinchi va oltinchi boblarida nemis tilining intonatsiyon qurilishi tasvirlanadi va barcha qoidalar mashqlar, sxemalar, modellar bilan mustahkamlanadi.

V bobda nemis avtorlarining asaridan parchalar nutqning monolog va dialog shaklida, birqancha she'rlar intonatsiyon sxemalar bilan berildi. Bundan tashqari Petra Pasauning „Volksmusic Internationales“, kitobidan bir qancha xalq ashulalari notalari bilan nusxa ko'chirish yo'li orqali berildi. O'ylaymizki, bunday mashqlar talabalarning axborot texnologiyalari yordamida talaffuz me'yolarini shakllantirishda va o'qish texnikasi ustida mustaqil ishlashlarida ko'mak beradi.

Qo'llanmadagi barcha qoidalarning talqinida va mashqlarning berilishida, muallif, bir tomondan o'zining ko'p yillik ish tajribasiga tayangan bo'lsa, boshqa tomondan, Olmoniyada, Rossiyada va O'zbekistonda fonetika faniga doir chop etilgan darsliklarga, qo'llanmalarga keng tayandi (adabiyotlar ro'yxatiga qarang).

Qo'llanma oxirida talabalarning fonetik yozuvini va talaffuz normalarini tezroq o'rganishlariga yordam berish maqsadida fonetik lug'at berishni lozim topdik. Lug'at nemis alfaviti tartibida berildi va kundalik dars jarayonida ko'p uchraydigan nemischa va internatsiyonal so'zlar Wilhelm Vietor va Theodor Siebs tomonlaridan ishlab chiqilgan qoidalar asos qilib olingan holda, ayrim o'zgartirishlar bilan berildi.

Mualliflar qo'llanmaning ikkinchi nashrini tayorlashda unga har jihatdan madad bergan, uni qo'llab-quvatlab turgan kasbdoshlari Buxoro davlat universiteti nemis filologiyasi bo'limi professor-o'qituvchilariga va uning sifatini yaxshilashga o'zlarining qimmatli maslahatlari bilan yaqindan ko'maklashgan professor S.Saidov, O'zbekiston Milliy universiteti professori Sh.Imyaminova, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti L.Xoliyorov, Urganch davlat universiteti dotsenti Z.Jumaniyozov va Buxoro davlat universiteti dotsenti M.Jo'rayevaga minnatdorchilik izhor etadi.

SO‘Z BOSHI VORWORT

Tilning fonetik sistemasi tovush bo‘laklaridan tashkil topadi. Bu bo‘laklarga **nutq tovushlari hamda prosodiya (yunoncha: Prosodiya - tilning intonatsion qurilishi)** kiradi. Nutq tovushlariga tilning eng kichik – boshqa kichik bo‘laklarga bo‘linmaydigan elementlari kiradi.

Tilshunoslikda bunday bo‘laklar tilning **tizma (segment)** qatorlari deb nomlanadi. Segment qatorlarga tovush – bo‘g‘in – so‘z - fonetik so‘z - nutq takti (sintagma) - va **fraza (gap)** kiradi.

Tilning prosodik vositalariga **tizma (segment) usti -(supersegment)** qatorlar: **urg‘u, ohang, tovushlarning cho‘ziqligi, nutq tezligi (temposi), uning sifati** va h. k. kiradi.

Talaba e‘tiboriga tavsiya etilayotgan ushbu q o‘llanma 2020-2019 yilda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida to‘ldirilgan holda qayta tayorlandi.

Qo‘llanma oliy maktabning I - II bosqich talabalariga hamda nemis tilini mustaqil o‘rganmoqchi bo‘lgan kishilarga mo‘ljallab yozildi. Unda fonetikaning har ikki - **segment va supersegment** qatorlari qamrab olingan.

Qo‘llanma yetti qismdan va fonetik lug‘at bo‘limlaridan iborat bo‘lib, birinchi qismda fonetika fanining predmeti, uning hozirgi zamon tilshunosligi fanida tutgan o‘rni haqida ma‘lumot beriladi. Ikkinchi va uchinchi qismlarda nemis tilidagi unli va undosh tovushlarga o‘zbek va rus tillaridagi tovushlarga, imkon darajasida taqqoslangan holda ta‘rif beriladi va barcha qoidalar mashqlar bilan mustahkamlanadi.

Qo‘llanmaning birinchi va ikkinchi qismlarini birinchi semestrda fonetikaga kirish kursi sifatida berilishi va talabalarning nemis tilidan hali puxta bilimga ega emasliklarini inobatga olib, o‘zbek tilida berishni lozim topdik.

Qo‘llanmaning uchinchi va to‘rtinchinchi qismlarida nemis tilining tovushlar tizimi tasvirlanadi. Bu bo‘limlar o‘quvchilarning talab va istaklarini inobatga olib qaytadan nemis tilida yozildi va ancha to‘ldirildi, jumladan so‘zning fonetik tahliliga e‘tibor berildi, qoidalar yangi mashqlar bilan to‘ldirildi.